



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI
DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**QURISH, KONSTRUKSIYALASH VA
MATEMATIKA RIVOJLANISH MARKAZIDA
TA‘LIMYIY FAOLIYATNI
TAKOMILLASHTIRISH**

O‘QUV QO‘LLANMA



Toshkent -2023

O'quv qo'llanma Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini MT-20 yo'nalishi tinglovchilari, oliy ta'lim tashkilotlari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari va tadqiqotchilariga "Ilk qadam" Davlat dasturi asosida Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish, jihozlash, ta'limiy jarayonlarni tashkil etish, ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, metodistlar, trener-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

- MTTDMQTMOI o'quv ishlari bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent N.Sh.Abdullayeva

-Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Maktabgacha va musiqiy ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi M.M. Rizayeva

Taqrizchilar:

-Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası mudiri p.f.f.d (PhD) S.S.Raximova

-QDPI fakultetlararo "Pedagogika psixologiya" kafedrası mudiri p.f.f.d(PhD) M.N.Xushnazarova

Mazkur uslubiy ko'rsatma Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy-metodik kengashining 2023 yil 15 fevral 1-sonli qarori bilan tasdiqlandi va nashrga tavsiya qilindi.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosatining maqsadi har bir bolaning sifatli va bepul ta'lim olish huquqini amalga oshirishdir. Maktabgacha ta'limdagi zamonaviy talablar tarbiyalanuvchining shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining mazmunini va tashkil etilishi to'g'risidagi yangi tushunchani belgilaydi. Yangi model pedagoglarga bolalarning rivojlanishini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir yosh guruhlari uchun ta'lim dasturlarini tuzishga imkon beradi. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning zamonaviy tizim shakllarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga moslashuvchan munosabat, bolalar uchun maktabgacha ta'limning yangi turlarining paydo bo'lishi har xil pedagogik xizmatlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha ta'limda bolalar ta'limi samaradorligi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar orasida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi muhim ahamiyatga ega. Bular tarbiyachilarning ijodiy faoliyati uchun qo'llanma hisoblanib, maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonining mazmunini belgilaydi. Maktabgacha ta'limning ilmiy va metodik tushunchasini aks ettirib, bola rivojlanishining barcha asosiy sohalarida tarkib topadi. "Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish" modulining o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatini tashkil etishning mazmun va mohiyatini ochib beradi. 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 10-bobi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalari", deb nomlangan. Mazkur bobning 52-moddasida Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti keltirib o'tilgan. Shunga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi uchun Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish yuritishga yo'naltirilgan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan ushbu sohani yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama

intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash masalasining ustivor vazifalarini belgilaydi

Qo'llanma maktabgacha ta'lim tizimining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining mazmunini takomillashtirish va tinglovchilarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

“Rivojlanish markazlarida loyihalash” modulining o'quv dasturi tarkibiga kiritilgan ushbu markaz faoliyati maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u rivojlanish markazini takomillashtirish, loyihalash, unga qo'yiladigan talablar, faoliyatlarda o'quv-didaktik vositalardan foydalanish, o'quv-didaktik vositalar tayyorlash bo'yicha malakasini oshirish jarayonlari mazmuni takomillashtirilib, muntazam yangilab borishni taqozo etadi. Ushbu qo'llanmada keltirilgan ilovalar tavsiyaviy xarakterga ega. Ta'lim-tarbiya ishlarining yakuniy natijalari MTTning pedagogik jamoasining o'z faoliyatini qanchalik tahlil qila olishi, rejalashtirishi, faoliyatni tashkil eta olishiga bog'liq.

Modul maqsadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari malakasini oshirish kurslari tinglovchilariga Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirishga oid bilimlar berish va amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Kutilayotgan natijalar:

Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi:

Tinglovchilarga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida guruhlarda Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazini loyihalash, rivojlanish markazlariga qo'yiladigan talablar, markazning bolalar rivojlanishidagi o'zga xos muhit ekanligi to'g'risida bilimga ega bo'ladilar;

Tinglovchilarga rivojlanish markazida bolalarni tayanch kompetensiyalarini faollashtirishda qo'llaniladigan amaliy metod va uning turlari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar;

Tinglovchilarga Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatga oid bilimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'yin orqali tashkil etish va amaliyotda qanday tashkil etish malakasiga ega bo'ladilar. Yuqorida keltirilgan bilim va ko'nikmalarni o'z faoliyatida amaliy qo'llay olish orqali yuqori malaka va kompetensiyalarga **ega bo'ladi.**

**II. “QURISH, KONSTRUKSIYALASH VA MATEMATIKA
RIVOJLANISH MARKAZIDA TA’LIMY FAOLIYATNI
TAKOMILLASHTIRISH”
TEXNOLOGIK XARITASI**

| | | | | |
|----------------------|--|--|---|--|
| 80 daqqa | 1–Mavzu: Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta’limiy faoliyat (nazariy 2 soat) | | | |
| 40 daqqa | “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmuni | Ma’ruza, Bahs munozara. | Slaydlar asosida ma’ruza. Tarqatma materiallar: kartochkalar | Tinglaydi, savol-javob, hujjatlarni o‘rganadilar, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi. |
| 40 Daqiqa | “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta’minlash. | Kichik guruhda ishlash | Tarqatma materiallar: Mavzuli rejalashtirish asosida mavzularni ochib berish | Tinglaydi, tahlil qiladilar, ma’lumotlarni yozib oladi, tavsiyalar ro‘yhati shakllanadi |
| 160 daqqa | 2–Mavzu: “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida bolalarni origami va matematik tasavvurlarni shakllantirishga o‘rgatishni takomillashtirish (amaliy 4 soat) | | | |
| 70 daqqa | “Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali metodlar va o‘rgatish usullari | Tangramm, lego, domino o‘yin to‘plamlari uchun resurslar tayyorlash | Tangramm, lego, domino o‘yin to‘plamlari namunalari asosida ish | Tinglaydi, savol-javob, tahlil qiladilar, fikrlar bildiradilar, ma’lumotlarni yozib oladi. |

| | | | | |
|----------------------|--|---|---|---|
| <p>70 Daqiqa</p> | <p>Tangramm va legolardan ta'limiy o'yinlar</p> | <p>Ta'limiy faoliyat uchun zarur bo'lgan resurslar yaratish</p> | <p>Flipchart qog'ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar</p> | <p>Har bir tinglovchi amaliy mashg'ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan namuna tayyorlab taqdim etadilar</p> |
| <p>20 Daqiqa</p> | <p>Oy mavzulari bo'yicha "Qurish, konstruksiyalash va matematika" markazi ta'limiy faoliyatini tashkil etish</p> | <p>Takdimod</p> | <p>Flipchart qog'ozi; Markerlar; Tarqatma materiallar</p> | <p>Har bir tinglovchi amaliy mashg'ulot davomida olgan bilimlari yuzasidan namuna tayyorlab taqdim etadilar</p> |

III. MA'RUZA MATN VA O'QUV MATERIALLAR

1-Mavzu: Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyatni takomillashtirish (80 daqiqa)

Reja

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmuni

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta'minlash

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazining pedagogik jarayonining mazmuni

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda fan — texnika nihoyatda jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, intellektual rivojlanishlariga katta ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi. Bolalarning elementar matematikaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, matematik topshiriqlar, ta'limiy o'yinlar orqali bolalarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

- son va sanoq haqida bilimlar berilib, birinchi va ikkinchi o'nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar hosil qilinadi.
- geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantiriladi;
- fazoviy munosabatlarni tushunish va fazoda mo'ljal olish ko'nikmasi hosil qilinadi;
- vaqt haqida tasavvurlar shakllantiriladi;
- miqdor (kattalik) haqida tasavvurlar hosil qilinadi;

Faoliyatlar davomida bolalar mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni yechib, o'yinlarni o'ynab, ijod qilgan holda yangi matematik tushunchalarni o'rganib, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab boradilar Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta'lim katta ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim — bu didaktik tizim bo'lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni

nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat— bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir. Muammoli jarayon — o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'rilanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og'zaki, masala yechish uslublari chuqur va mustahkam o'zlashtirilgandagina, muammoli ta'lim foydali bo'lishi mumkin.

Pedagog tarbiyachilar quyidagi savollarni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishlari mumkin:

1. Masalani yechish jarayonidagi bola fikrlash psixologiyasining xususiyatlarini qanday o'rganish mumkin?

2. Ushbu o'rganishlardan foydalangan holda masalani yechishga o'rgatish uslubi haqidagi nazariyani qanday tuzish mumkin?

Bolada matematik tushunchalarni rivojlantirish uchun uning shaxs xususiyatlarini bilish muhimdir. Pedagog faoliyatni tashkil qilishda quyidagilarni bilish kerak:

a) bilim darajasi, ya'ni bolaning ijodiy faoliyati qanday tushunchalarga asoslanib bajariladi;

b) ijodiy ishlashning qanday shakllanganligi;

d) bolalarda uchraydigan o'ziga xos qiyinchiliklar;

ye) bolaning shaxsiy xususiyatlari.

Ta'lim berish psixologik-pedagogik adabiyotda o'quv jarayonining shunday tashkili tushuniladiki, ta'lim va tarbiya berish uslub va vositalarining tanlanishida bolaning shaxsiy psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi. Ta'limni individuallashtirish bilim va ko'nikmalarning har bir bola tomonidan ongli, mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlashga, uning aqliy kuchi va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilimni mustaqil topa bilishini shakllantirishga hamda bu bilimni turli amaliy va o'rgatuvchi masalalarni yechishda ijodiy ishlata bilishni o'rgatishga qaratilgan. Qurilish-konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalar, uylar, garajlar, o'z tasavvuridagi uylar, ko'priklar, yo'llar, ferma va do'konlar, maktab va bog'cha shu kabilar. Qurilish bilan

mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu markazda boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

Markazdagi faoliyat orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug'ullanish imkoniga ega.

Bolalar orasidagi suhbatlar tinglansa, ularning muloqotida “Menga katta g'ishtni ber”, “Menga qizil kerak”, “O'ng tomoningdagi meniki”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa katta”, “men yasagan mashinaning rangi oq”, “Mana senga kuk lego”, “Mening mashinamga 10 ta odam sig'adi”, “Nima uchun buzilib ketdi?, chunki sen tagiga ko'p g'isht qo'ymading, tagi kichikgina bo'lib qoldi”va boshqa jummalarni eshitasiz. Demak bolalar muloqotida ayirish, qo'shish, kattalikni bilish, taqqoslash kabi matematik iboralar ishlatiladi va ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.O'z ishlarini tahlil qilishni o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun rivojlantiruvchi – predmetli o'yin muhiti va kattalarning ular bilan mazmunan boy muloqoti yagonaligi zarur omil bo'lib hisoblanadi. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti – maktabgacha yoshdagi bolani jismonan, ma'nan, shuningdek, intellektual rivojlantirish mazmunini modellashtirish vazifasini bajaruvchi atrof–muhitdagi narsalar tizimidir.Mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, barcha sohalardagi rivojlanishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham tub o'zgarishlarga erishishni taqozo etmoqda. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolaning aqliy fikrlash, boshlang'ich tashabbuskorligini o'stirish, o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashga faol xarakter qilishidagi asosiy vositadir.Bola amal qiladigan predmetli muhit undagi bilim va ko'nikmani amaliyotda qo'llash uchun bitmas-tuganmas axborot manbai bo'lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, uni mantiqan fikrlashga, mustaqil ravishda yangilik yaratishga undovchi, boladagi malakani yanada takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur. Rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini, is'tedodlarini namoyish eta oladigan madaniy-ma'rifiy markaz

sifatida shakllanmog'i kerak. Bolaning muntazam tarzda foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lishini ta'minlaydigan muhitni yaratish uchun jamoadan yuksak ijodkorlik bilan mehnat qilish talab etiladi. Bolalikning predmetli muhiti yosh, navqiron avlodning shakllanuvi uchun zarur bo'lgan barcha axborot va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bola rivojlanishining predmetli muhiti bola va uning shaxsi to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit bir tizim bo'lib, unda bola xozirgi zamon talablari darajasida jismoniy, estetik, aqliy, ijtimoiy tarzda to'liq rivojlanadi. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolalar shaxsini, kobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, bolalarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o'z kuchiga ishonishlariga, yangiliklarga intilishlariga, yaratuvchanlikka undaydi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markaziga qo'yiladigan talablar :

1. Eng avvalo bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug'lik bilan ta'minlanadigan xonalar.
2. Har bir markazning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlash.
3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag'batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Masalan jihozlarning yetarli bo'lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham
4. Markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi kerak.
5. Bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish (kichik guruhlar, juft bo'lib va o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.)
6. Bolalarda tashkilotga tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissini shakllantirish
7. Markazlarda bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan qismlarga bo'lish va u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k bo'lishi shart
8. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan qilib joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi shart.
9. Markazlardagi rivojlanish muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo'lishi kerak.
10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.
11. O'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.
12. Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish. Buni so'zlar va ramzlar bilan tasvirlash.

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida asosan bolalar faoliyati—amaliy faoliyat bo‘lib, ular qurish-yasash faoliyati bilan bir vaqtda matematik tasavvurlarini ham shakllantirib boradilar. Bu esa bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi, hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko‘nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat’iylik va hokazo...) tarkib topa boshlaydi, bularni barchasi bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotda bolalarni qurilish materiallari yordamida o‘yin va mashg‘ulotlar o‘tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotda qurilish materiallari yordamida o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar katta o‘rin egallaydi. Bolalarning qurilish o‘yinlari rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o‘yinlarida ham bolalar tevarak atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar.

Qurilish o‘yinlarining mazmuni bolalarning o‘zlari yaratadilar. Bolalar ko‘pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o‘yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o‘z o‘yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o‘yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg‘otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi.

Nazorat savollari

1.Maktabgacha yoshdagi bola matematik tasavvurlari qanday shakllantiriladi?

2.Markaz faoliyatini tashkil etishda qanday ta’lim texnologiyalaridan foydalanasiz ?

3.Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan origami qay tarzda amalga oshiriladi?

| | Savol | Javob |
|-----------|--|---|
| 1. | Muammoli ta’lim — nima | — bu didaktik tizim bo‘lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. |
| 2. | Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markaziga qo‘yiladigan talablar | 1.Eng avvalo bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug‘lik bilan ta’minlanadigan xonalar. 2. Har bir markazning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo‘lishini ta’minlash. 3. Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag‘batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. |

| | | |
|------------------|--|--|
| | | <p>Masalan jihozlarning yetarli bo'lishi, kichik tadqiqot va tajribalar uchun ham</p> <p>4. Markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi kerak.</p> <p>5. Bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish (kichik guruhlar, juft bo'lib va o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.)</p> <p>6. Bolalarda tashkilotga tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissini shakllantirish</p> <p>7. Markazlarda bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan qismlarga bo'lish va u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k bo'lishi shart</p> <p>8. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan qilib joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi shart.</p> <p>9. Markazlardagi rivojlanish muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo'lishi kerak.</p> <p>10. Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.</p> <p>11. O'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.</p> <p>12. Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish. Buni so'zlar va ramzlar bilan tasvirlash.</p> |
| <p>3.</p> | <p>Qurilish o'yinlari qanday faoliyatlarini aks ettiradilar.</p> | <p>Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevarak atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar.</p> |

2–Mavzu: “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazida bolalarni origami va matematik tasavvurlarni shakllantirishga o‘rgatishni takomillashtirish (160 daqiqa)

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali metodlar va o‘rgatish usullar

Tangramm va legolardan ta’limiy o‘yinlar

Oy mavzulari bo‘yicha “Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazi ta’limiy faoliyatini tashkil etish

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali metodlar va o‘rgatish usullar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi” deya ta’kidlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Takomillashgan Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan,

1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi.

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarni o‘yin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam

sig‘adi” degan jumalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.


Bolada ijodiy qobiliyatni shakllantirish – maktabgacha ta‘lim hamda zamon talabining dolzarb maqsad va vazifasi. Hozirgi kunda bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi ilmiy asoslangan metodik tizimga ega. Ularning asosiy elementlari maqsad, mazmun, metodlar, ishni tashkil etish shakl va usullari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular orasidagi asosiy maqsad tasavvurni shakllantirishga qaratiladi.

Matematik tushunchalarni shakllantirish — inson ijodiy faoliyatining butun maqsadli amalga oshiriladigan pedagogik jarayonidir. Qurilish-konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, o‘z tasavvuridagi uylar, ko‘priklar, yo‘llar, ferma va do‘konlar, maktab va bog‘cha shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bolaning Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil materiallar asosida ijodiy tajriba orttirishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar jamoasini to‘g‘ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurilish–yasash mashg‘ulotida egallaydilar. Ana shu mashg‘ulotlarda ular narsalarning elementar ko‘rinishlarini, qurilish qismlaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o‘rganadilar va qurilishni badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o‘zlashtirib oladilar. Faoliyatning bu turlari bolalarga o‘zlari yaxshi ko‘rgan va yoqtirgan narsalar haqida, Qurilish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazi uchun Matematik boshqotirma tayyorlash.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining “Qurilish, konstruksiyalash va matematika ” rivojlanish markazlarida turli rivojlantiruvchi o‘yinlarning olib borilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqatini, fazoviy, mantiqiy va mavhum fikrlashini rivojlantiradi.

Tangramm va legolardan ta‘limiy o‘yinlar-Tangram – bu bizga Qadimgi Xitoydan kirib kelgan boshqotirma. Bu sharqona o‘yinning vazifasi – yettita oddiy geometrik shakllar yordamida tekis yuzada kontur bilan ko‘rsatilgan yangi shaklni yasash. Ular turli xil hayvonlar, transport, o‘simliklar va odamlar siluetlari bo‘lishi mumkin. Tangram rivojlantiruvchi o‘yining asosiy maqsadi – shakllarni ustma-ust qo‘ymagan holda barchasidan foydalanish. Tangramning paydo bo‘lishi haqida turli afsonalar mavjud.

Tarixga nazar tashlasak, “Tangram” – qadim zamonlarning kashfiyoti hisoblanadi. U haqidagi birinchi bosma eslatma 1813 yilda nashr etilgan imperator Tsyasin hukmronligi davrida yozilgan xitoy kitobida uchraydi. “Tangram”ning g‘arbda paydo bo‘lishi XIX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu boshqotirmalar Amerikaga Xitoy va Amerika kemalarida kelgan. Qadimgi namunalaridan biri, 1802 yilda amerikalik kema egasining o‘g‘liga sovg‘a qilingan, u fil suyagidan yasalgan.



Tangram so‘zi Xitoy tilidan tarjima qilinganida, “Yetti mahorat taxtasi” ma‘nosini bildiradi. Bu boshqotirma, yettita yassi shakldan iborat bo‘lib, ular ma‘lum tarzda joylashtirilganda, boshqa murakkab predmetlar hosil qiladi. (ular odam, hayvonlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, harflar yoki sonlar bo‘lishi mumkin.) Bu holda olinishi kerak bo‘lgan predmet odatda siluet yoki tashqi konturi chizilgan holatda beriladi. Deyarli ikki yarim ming yil avval, yosh bo‘lmagan Xitoy imperatorining uzoq kutilgan o‘g‘li va vorisi tug‘ildi. Yillar o‘tdi. Bola sog‘lom va aqlli bo‘lib o‘ydi. Keksa imperatorni bir narsa tashvishga solar edi: uning o‘g‘li, ulkan mamlakatning keljakkdagi hukmdori o‘qishni hohlamas edi. Imperatorning o‘g‘liga esa kun bo‘yi o‘yinchoqlar bilan o‘ynash ko‘proq zavq bag‘ishlar edi. Imperator yoniga uchta donishmandni chaqirdi. Donishmandlarning biri matematik, ikkinchisi rassom, uchinchisi esa mashhur faylasuf edi. U uch donishmandga, shunday o‘yin topingki, o‘g‘lim zavq bilan o‘ynab matematikaning boshlanishini, atrof olamga rassomday teran nazar solishni va sabr-toqatli haqiqiy faylasuf bo‘lishini, xattoki ko‘pincha murakkab narsalar oddiy narsalardan iborat ekanligini anglashini hohladi.

Uchta donishmand “Shi-Chao-Tyu” – 7 qismga bo‘linadigan kvadratni o‘ylab topishdi

Tangram qismlaridan turli xil shakllar hosil qilish mumkin.

Rivojlantiruvchi Tangram o'yini bolalarda :

- diqqatni;
- ranglarni, kattalikni va shakllarni anglashni;
- mavhum, fazoviy va mantiqiy fikrlashni;
- lug'at boyligini oshiradi;
- kombinasion qobiliyatni rivojlantiradi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarga "Tangram" o'yinlari oddiydan murakkabga qadar berib boriladi. Bunda bolalarning Yoshi va individual xususiyatlari inobatga olinadi.

Yozuvchi va matematik Lyuis Keroll "Tangram"ning ixlosmandi hisoblanadi. Unda 323 ta masalasi bor xitoycha kitobi bor edi.

Hattoki Napolenni surgun qilishgan vaqtida, uning yonida "Tangram" o'yini to'plami, masala va yechimlar kitobi bo'lgan.



"Tangram" haqida ertak


Yetti tog'ning ortida Matematika qirolligida juda aqlli odamlar qayg'u bilmay hayot kechirishar edi. Ular judayam quvnoq va mehribon, hamda afsonaviy qushlar va hayvonlar bilan do'stona munosabatda edilar.

Qirollikda buyuk bayram Matematika malikasining tug'ilgan kuni yaqinlashib kelar edi. Qirollik rangli geometrik shakllar va raqamlar bilan bezatilgan edi. Bu bayramga matematika qirolligining barcha ahli va atrofdagi o'rmondan afsonaviy hayvonlar va qushlar ham taklif etildi. Shunday qilib, mehmonlar bayram qilishni boshlashdi. Shu vaqtda yovuz sehrigar saroy ustidan uchib o'tayotgan edi. Yovuz sehrigar saroy ahli uni bu bayramga taklif qilmaganligi uchun judayam g'azablandi. Va shu onda u sehrlil tayoqchasini bir silkitib barcha saroy ahlini va mehmonlarni kvadrat shakllarga aylantirib qo'ydi. Hattoki saroy va archalar ham kvadrat shaklga aylandi.

Ularni bu sehr jodudan faqat aqlli va uddaburon bolalar halos eta oladilar.

Keling bolajonlar Matematika qirolligini bu sehrdan qutqaramiz.


Tangram - bu maxsus ko'nikmalarni talab qilmaydigan, lekin bolalarni ham,



kattalarni ham uzoq vaqt davomida o'ziga jalb qila oladigan hayajonli jumboq. Qadimgi Xitoyda qiziqarli o'yin ixtiro qilingan va uning nomi tom ma'noda "etti taxta mahorati" degan ma'noni anglatadi. Tangram biroz zamonaviy jumboqlarga o'xshaydi va hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ushbu mantiqiy jumboqda siz ettita alohida ko'p rangli qismdan bitta katta kompozit figurani olishingiz kerak. Tangramning barcha qismlari belgilangan konturga joylashtiriladi, shunda ularning har biri to'g'ri joyni egallaydi va bir-biriga yopishmaydi. Natijada, turli xil geometrik shakllar va ranglarning tafsilotlaridan chiroyli yorqin figuralar hosil bo'ladi.

Intellectual tangram jumboqlari bolalarda mantiqiy, fazoviy va obrazli tafakkur, diqqat va tasavvurni tez va tabiiy ravishda rivojlantiradi. O'yin davomida bolalar geometrik shakllar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi, ularning nomlari va ranglarini tezroq eslab qolishadi, o'lcham va shaklda solishtirishni o'rganadilar. Oddiy vazifalarni bajarib, bola taqqoslaydi va tahlil qiladi, keyingi qadamlarni rejalashtiradi va o'z harakatlarining kelajakdagi natijasini taqdim etadi. Bunday ko'nikma va qobiliyatlar har qanday yosh o'quvchi uchun maktabga tayyorgarlik ko'rish va boshlang'ich sinflarda o'qish davrida juda muhimdir.

Ushbu o'yinda pedagoglar hayvonlar, qushlar, dengiz hayoti, transport vositalari va boshqa ko'plab mavzuli rasmlarni to'plashni taklif etiladi.



Vazifa oq rangda ko'rsatilgan konturga bo'laklarni siljitish orqali 7 ta rang-barang bo'lakdan butun rasmni yaratishdir. O'yinda siz barcha taklif qilingan raqamlardan foydalanishingiz kerak va ularning hech biri boshqalar bilan kesishmasligi kerak. Agar siz hamma narsani to'g'ri qilsangiz, siz 5 xil binoni to'plashingiz mumkin bo'ladi - tegirmon, uy, mayoq, tepalik va minora.

O'yin qoidalari dastlab murakkab ko'rinishi mumkin, lekin aslida tangram o'ynash juda qiziqarli va qiziqarli. Va agar birinchi urinishda biror narsa ishlamas, tafsilotlarni diqqat bilan ko'rib chiqing va ularni qayta tartibga solishga harakat qiling.



LEGO, shubhasiz, ko'p avlodlarga hamroh bo'lgan va hayotimizning yana bir qismiga aylangan afsonaviy brendlardan biridir. Uning ismi butun dunyoga ma'lum, ammo uning hikoyasi unchalik ma'lum emas. LEGO hammaga ma'lum bo'lgan brendlardan biri ekanligi juda aniq. Biroq, o'yinchoqlar kompaniyasining tarixi va faoliyati keng jamoatchilikka noma'lum. Qancha LEGO figuralari mavjudligini bilasizmi? Yoki

dunyodagi eng ko'p (mayda) g'ildiraklarni ishlab chiqaradigan kompaniya qaysi? lego Ole Kirk Christiansen tufayli tug'ilgan Daniya kompaniyasi, biznesini yo'qotib qo'ygan yog'ochdan o'yinchoqlar yasashni boshlagan duradgor. En 1949 yilda Ole ularni o'zgartirdi va o'z versiyasini sotdi. O'z-o'zidan yopishtiriladigan g'isht hozirgi LEGOga aylandi.



LEGO guruhiga Ole Kirk Kristiansen (1891 yil 7 aprel - 1958 yil 11 mart) asos solgan. U Daniyaning Jutland shahrida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Duradgorlik hunarini o'rgangach, 1932-yilda dazmol taxtasi, narvon kabi kundalik foydalanish uchun zarur buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonaga asos solgan. Kompaniya unchalik katta foyda keltirmadi va keyin o'g'li Gotfrid Kirk Kristiansen bilan birgalikda yog'och kublar ishlab chiqarishni boshladi. Aytishim kerakki, bu g'oya nafaqat

ularning hayotda o'z yo'llarini topishga yordam berdi, balki hayotlarini butunlay o'zgartirdi. Kristiansen yangi o'yinchoq kompaniyasini lego deb nomladi, bu ikki daniyalik so'z, leg va godt (yaxshi o'ynash uchun) birikmasidan iborat. Lego 1947 yilda plastik o'yinchoqlarga aylandi. G'ishtlar bir xil pinlar bilan plastik bo'lib, ularni bir-biriga ulash imkonini berdi. Aytishim kerakki, bunday g'isht g'oyasi endi yangi emas edi va ingliz bolalari orasida mashhur edi. Britaniya quyish kompaniyasining namunalari o'rgangach, Ole g'isht dizaynini o'zgartirdi va butunlay yangi namunalarni shtamplashni boshladi. Ular yog'och kabi kuchli emas edi, lekin ular osonlikcha bog'langan va bir-biriga mahkam o'rnanishgan.



Birinchi LEGO g'ishtlari shunday tug'ilgan. 1958-yilda Ole Kirk Kristiansen vafotidan so'ng kompaniyaga uning o'g'li Gotfrid rahbarlik qildi va u otasining ishini katta astoydil davom ettirdi va kompaniyani xalqaro darajaga olib chiqdi. Ammo tashqi bozorda xaridorlarni qiziqtirish uchun Gottfrid butun o'yinchoq tizimini yaratishga qaror qiladi. Biroq, g'ishtlar hali ham texnik nuqtai nazardan ba'zi muammolarga duch keldi: ularning ushlab qobiliyati cheklangan va ular juda ko'p qirrali emas edi. 1958 yilda g'isht dizayni tasdiqlandi, ammo buning uchun to'g'ri materialni topish uchun yana besh yil kerak bo'ldi. Lego g'ishtining yakuniy versiyasi 1958 yil 28 yanvarda patentlangan. O'sha yildagi g'ishtlar bugungi kundagi g'ishtlarga

hali ham mos keladi. Yillar davomida Lego assortimenti kengaydi. Power Functions and Technic seriyasida keng namoyish etilgan qo'shimcha motorlar, mexanizmlar, chiroqlar, sensorlar va kameralar ishlatilgan. Bionicle va Hero Factory seriyasini ham eslatib o'tishimiz kerak. Ushbu to'plamlar 7-16 yoshdagilar uchun. Qahramonlarning tafsilotlari odamlar va hayvonlarga xos bo'lgan barcha harakatlarni bajarishga yordam beradigan xarakterli ilgaklarga ega edi. Sotuvga qo'yilgan eng katta Lego to'plamlaridan biri bu Katta o'lchamli modellar seriyasidagi Toj Mahaldir. To'plamdagi qismlar soni 5900 dan oshadi, strukturaning o'lchamlari esa 51x41 sm. Tower Bridge qismlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. 4287 dona g'ishtdan iborat bo'lib, uzunligi 102 sm. 2011-yil may oyida Endeavoro kosmik kemasi Xalqaro kosmik stansiyaga 13 ta Lego to'plamini yetkazib berdi, shunda kosmonavtlar modellar yaratishi va ularning koinotning mikrogravitatsiyasida qanday reaksiyaga kirishishini o'rganishi mumkin edi. Tajribalar natijalari ta'lim loyihasi doirasida maktablar bilan o'rtoqlashdi.

Oy mavzulari bo'yicha “Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazi ta'limiy faoliyatini tashkil etish

Yer rasmini to'plang

Maqsad: bolalar dumaloq –hajmga ega bo'lgan geometrik shakl haqida tushunchani mustahkamlaydilar, yer -umumiy uyimiz, inson esa tabiatning bir qismi ekanligi haqida tasavvurga egabo'ladilar, globus bilan tanishadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: pazllar, yer (planeta) tasvirlangan rasmlar, globus.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.

2. She'rni o'qish:

Ona sayyoramiz boy ne'matlarga,

Tog'laru o'rmonlar, dalalari bor.

Yerimiz boshpana, biz odamlarga

Hech qachon bermaymiz biz unga ozor.

Asraylik yerdagi bor jonzotlarni,

Bog'laru, gullar-la bezaylik uni.

Shunda sayyoramiz yashaydi mangu

Bag'rida saqlaydi bor odamzotni.

3. Globus-yer-sayyorasining kichik tasviri bilan tanishtirish.

4. Dumaloq geometrik shakl haqida tushunchani mustahkamlash.

5. “Rasmni yig” ta'limiy o'yini.

6. Bolalar ishlarining tahlili.

Qo'shimcha: badiiy adabiyotni o'qish, ilustrasiyalarni tomosha qilish.

E'tibor molik jihati: bolalarni atrof-muhitga mas'uliyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.



Qog‘ozdan yasash: O‘z qo‘llaring bilan kitobcha yarat.

Maqsad: bolalar qog‘ozni markazdan buklash yo‘li orqali kitobcha yaratishga o‘rganadilar, butun qog‘ozlarni jamlay oladilar, kitobchani shaxsiy suratlar bilan ijodiy bezatadilar. Bolalarning mehnat faoliyati orqali kitoblarga hurmat hissini uyg‘otish.

Kerakli jihoz va materiallar: A-4 hajmdagi qog‘oz, rangli qog‘ozlar, suratlar, qaychilar, yelim, sochiqcha, flomasterlar.

Faoliyatning borishi:

1. Kitoblarni tomosha qilish. Suhbat.
2. Tayyorlangan kitobchalarning namunasini ko‘rsatish.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.
4. Faoliyatni yakunlash.

Qo‘shimcha qism: kitobchalarni yasash turli usullari bilan tanishtirish, slaydlar namoyish etish. Tayyor kitobchalarni guruh kutubxonasiga qo‘yishni taklif etish.
E’tiborga molik jihati: bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish.



Onam uchun taqinchoq

Maqsad: bolalar bir nechta belgilarga ko‘ra predmetlarni farqlashni (kattalik, rang, tarkib) biladilar. Bilaguzuk yasash uchun munchoqlarni navbatma-navbat, tartib bilan joylashtirishni biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: har bir bolaga bilaguzukning asosiga 6-10 ta munchoqlar, har xil rang va uzunlikdagi simchalar. Tarbiyachi ko‘rsatishi uchun har xil rangdagi va o‘lchamdagi karton doirachalar.


Faoliyatning borishi:

1. Bolalarni namunalar bilan tanishtirish.
2. Bolalarga munchoqlardan bilaguzuk uchun bezak qilishni taklif etish.
3. Katta-kichikligiga va rangiga qarab, tugmachalarni saralash (stolni o‘ng va chap tomonlariga joylashtirish).
4. Namuna asosida simchaga munchoqlarni terish.

5. Erkin faoliyat.

Qo'shimcha: singlisiga va do'stiga bilaguzuk yasab berish.

E'tiborga molik jihati: sim bilan ishlaganda ehtiyot bo'lish, do'stona va ijodiy muhitni yaratish, hayot xavfsizligi asoslariga e'tiborni qaratish.



Konstruksiyalash: Varraklar


Maqsad: bolalar qog'ozni turli yo'nalishlarda buklay yonish yo'llarini biladilar, tayyor ishni bezatishda ijodiy yondashadilar.

Faoliyatning borishi:

1. Varrak tayyorlash sxemasini o'rganish.
2. Qog'ozni romb shaklida buklay, turli xil usullarda qatlash.
3. Tayyor ishni bezash.

Qo'shimcha: tayyor varraklar bilan guruh xonasini bezash.

E'tiborga molik jihati: bezak berishda ijodiy yondashish. Vazifani bajarayotganda do'stiga yordam berish.



Denesh bloklari

Maqsad: bolalar mantiqiy Denesh bloklari bilan tanishadilar, bir-biriga o'xshash bo'lgan ranglarni ajratadilar, predmetlarning soni va kattaligiga qarab qog'oz markaziga joylashtiradilar.




Kerakli jihoz va materiallar: mantiqiy "Denesh bloklari"

Faoliyatning borishi:

- 1."Denesh bloklari" bilan ishlash.
2. Denesh bloklari bilan qurishni rejalashtirish.
3. Denesh bloklari bilan mantiqiy narsalar yasash.
4. Bolalar o'yinini muhokama qilish va ularni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: lego yordamida tarbiyachi bolalar tuzgan kompozitsiyani to'ldirishi mumkin.

E'tiborga molik jihati: bolalarni jamoada ishlashga o'rgatish, ularning mantiqiy fikrlashlarini o'stirish.



“Tarelkacha” pape-mashe usulida

Maqsad: bolalar pape-mashe yasash texnikasini biladilar; ishni sxema asosida bajaradilar.


Kerakli jihoz va materiallar: namuna, mavzuli rasmlar, pape-mashe yasash uchun zarur bo‘lgan jixozlar (gazetalar, PVA yelimi, kistochkalar).

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar pape-mashe texnikasida ishlangan idish-tovoqlar tasviri tushirilgan rasmlarni, namunani tomosha qilishadi.
2. Sxemani o‘rganishadi.
3. Ishni sxemaga qarab bajarishadi.

Qo‘shimcha: vazifani uddalagan bolalar qolganlariga yordam berishadi.

E’tiborga molik jihati: bolalarda ijodiy tasavvuri va konstruktiv qobiliyatining shakllanishiga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishiga.



Origami: Stakancha

Maqsad: bolalar origami texnikasini biladilar va mustaqil ravshda ijodiy ishlaydilar, matematik bilimlari boyitiladi.


Kerakli jihoz va materiallar: namuna, qog'oz stakanchani yasash sxema-rejasi, origami uchun qog'oz.

Faoliyatning borishi:

1. Qog'oz stakanchani yasash sxema-rejasini ko'rib chiqish.
2. Ishning bolalar tomonidan bajarilishi.

Qo'shimcha: boshqa xildagi idishlarni yasash taklifini berish.

E'tiborga molik jihati: origami bilan ishlashning texnik ko'nikmalari; sxema bilan ishlashni bilish.



Qog‘oz va tashlandiq materiallardan sandiq yasash (konstruksiyalash)

Maqsad: bolalar qog‘oz yoki qog‘oz qutidan sandiq yasash va to‘g‘ri proporsiyani e‘tiborga olgan holda qog‘oz yoki karton qog‘ozni tasviriy fikrlash orqali tahlil qilib taxlash usullarini amalga oshira oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: tashlandiq material, karton, qog‘oz, qaychi, yelim, skotch.


Faoliyatning borishi:

Sandiqni yasash va terish sxemasini ko‘rib chiqish.

Ishning bolalar tomonidan bajarilishi.

Qo‘shimcha: ishni san‘at markazida nihoyasiga yetkazish.

E‘tiborga molik jihati: tashlandiq materialni ishlatishda bolaning konstruktiv yechim topishga e‘tibor qilish, bolaning sxemaga qarab ishlay olishi



Nazorat savollari

1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun matematika faoliyatlarida qanday ta'limiy o'yinlardan foydalanasiz?

2. Qurish, konstruksiyalash rivojlanish markazida ta'limiy o'yinlar haqida nimalarni bilasiz?

3. Tangram, Lego, Domino o'yinlari tarixi haqida nimalar bilasiz?

| | Savol | Javob |
|-----------|---------------------------------------|--|
| 1. | Origami nima? | Qog'ozni buklash degan ma'noni bildiradi. Origami - bu ajoyib san'at! Qog'oz varag'ini chiroyli tarzda katlay olish qobiliyati qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. An'anaga ko'ra, qadimgi Xitoy bu san'at va hunarmandchilikning vatani hisoblanadi. Ehtimol, bu xulosaning asosiy sababi uning bevosita Xitoyda ixtiro qilinganligidir. |
| 2. | Tangram tarixi haqida so'zlab bering. | Tangram - xitoy tilidan tarjima qilingan " etti mahorat plansheti " degan ma'noni anglatadi |
| 3. | Lego tarixi haqida nimalar bilasiz? | Lego konstrukt or turidagi <u>o'yinchoqlar</u> seriyasidir. "Lego" so'zi "leg godt" so'zlarining qisqartmasi bo'lib, "yaxshi o'yna" degan ma'noni anglatadi. |

| | |
|--|--|
| Qurish, konstruksiyalash va matematika: | <p>Jihozlar: • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar; • polga gilam yoki palas; • stol (1), stullar (2-4).</p> <p>Materiallar: • yog'och, plastikdan yasalgan katta o'lchamli pol konstruktorelari; • katta yumshoq modullar to'plami; • transport o'yinchoqlari; • turli yoshdagi, millat, kasb vakillarini ifodalovchi haykalchalar; • hayvonlarning haykalchalari; • "Lego" konstruktorelari to'plami (odam figuralari bilan); • asosiy detallarga ega o'rta va kichik konstruktorelari to'plami: kubiklar, g'ishtchalar, prizmalar, konuslar; • boshqa stol konstruktorelari (metall, magnit va boshqalar);</p> |
|--|--|

| | |
|--|--|
| | <p>Matematika uchun: • o'lchash, tortish, hajmi, shakli bo'yicha solishtirish uchun ochiq qutilarda turli xil materiallar. Qutilarni tizimlashtirilgan, yozuvlar va belgilar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak; • hisoblash uchun material va saralash uchun rangli stakanlar; • boshqotirmalar (geometrik, naqshni yasa va boshqalar); • katta o'lchamdagi raqamlar va arifmetik belgilar (namoyish materiali); • cho'tlar; • tortish va taqqoslash ob'ektlar bilan tarozilar; • turli uzunlikdagi lineyklar; • har xil turdagi o'lchov ruletkalari; • qum soati; • sekundomer; • raqamli muvozanatlashtgich; • modellar to'plami: 2 dan 16 gacha bo'lgan qismlarga bo'lish uchun; • raqamli kartochkalar to'plami va boshqalar; • shashka, shaxmat.</p> |
|--|--|

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining guruh xonalarida rivojlanish markazlarini
jihozlash bo'yicha tavsiyanoma

| Rivojlanish markazlari | Kichik guruh | O'rta guruh | Katta guruh | Maktabga tayyorlov guruhi |
|---|---|--|---|--|
| <p>“Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi</p> | <p>1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari</p> <p>2. Turli ko'rinishdagi o'rta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari(kubiklar, bruslar va x.k)</p> <p>3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari</p> <p>4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari</p> <p>5. Tayyor qurilish modellari</p> <p>6. Qurilgan obyektlarda o'yin tashkil qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> | <p>1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari</p> <p>2. Turli ko'rinishdagi o'rta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari (kubiklar, bruslar va x.k)</p> <p>3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari</p> <p>4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari</p> <p>5. Tayyor qurilish modellari</p> <p>6. Qurilgan obyektlarda o'yin tashkil</p> | <p>1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari</p> <p>2. Turli ko'rinishdagi o'rta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari(kubiklar, bruslar va x.k)</p> <p>3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari</p> <p>4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari</p> <p>5. Tayyor qurilish modellari</p> <p>6. Qurilgan obyektlarda o'yin tashkil qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochl</p> | <p>1. Yirik yog'ochli va plastmassali pol ustida o'ynaydigan qurish-yasash to'plamlari</p> <p>2. Turli ko'rinishdagi o'rta o'lchamdagi qurish-yasash to'plamlari(kubiklar, bruslar va x.k)</p> <p>3. Stol usti mayda yog'ochli, plastmassali qurish-yasash to'plamlari</p> <p>4. Mavzuli qurish-yasash to'plamlari</p> <p>5. Tayyor qurilish modellari</p> <p>6. Qurilgan obyektlarda o'yin tashkil qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochli, plastmassali) doira,oval,kvadrat,t</p> |


| | | | | |
|--|---|--|---|---|
| | <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochli i, plastmassali)</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> | <p>qilish uchun mayda transport vositalari va o'yinchoqlar</p> <p>7. Geometrik shakllar(yog'ochli, plastmassali)</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> <p>9. "Naqshlarni topib tuz" didaktik o'yin</p> <p>10. Sanoq cho'plari</p> <p>11. Sanash uchun mayda predmetlar</p> <p>12. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning qirqma rasm bo'laklari</p> <p>13. Matematik tasavvurlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali materiallar(butun va qismlarni o'rganish uchun, oz va ko'p)</p> | <p>i, plastmassali) doira,oval,kvadrat ,to'g'ri to'rtburchak, romb, trapetsiya</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> <p>9. "Naqshlarni topib tuz" didaktik o'yin</p> <p>10. Sanoq cho'plari</p> <p>11. Sanash uchun mayda predmetlar</p> <p>12. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning qirqma rasm bo'laklari</p> <p>13. Matematik tasavvurlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali materiallar(butun va qismlarni o'rganish uchun, oz va ko'p)</p> <p>14. "Tagram" didaktik o'yini</p> <p>15. Xona bo'ylab predmetlarni joylashuviga ko'ra sxemalar</p> | <p>o'g'ri to'rtburchak, romb, trapetsiya</p> <p>8. Pazllar, lego, mozaykalar</p> <p>9. "Naqshlarni topib tuz" didaktik o'yin</p> <p>10. Sanoq cho'plari</p> <p>11. Sanash uchun mayda predmetlar</p> <p>12. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning qirqma rasm bo'laklari</p> <p>13. Matematik tasavvurlarini shakllantiruvchi ko'rgazmali materiallar(butun va qismlarni o'rganish uchun, oz va ko'p)</p> <p>14. "Tagram" didaktik o'yini</p> <p>15. Xona bo'ylab predmetlarni joylashuviga ko'ra sxemalar</p> <p>16. Past va baland, uzun va qisqa, yupqa va qalin predmetlar</p> |
|--|---|--|---|---|






FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.:2022
3. Mualliflar: Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V. va boshqalar. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish” T.:2020 y.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilot ta’lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish” T.:2019
5. Karabanova O.A., Alieva E.F., Radionova O.R., Rabinovich P.D., Marich Ye.M. Organizatsiya RPPS v sootvetstvii s FGOS DO. Metodicheskie rekomendatsii dlya pedagogicheskix rabotnikov doskolnyx obrazovatelnyx organizatsiy i roditeley detey doskolnogo vozrasta. – M.: Federalniy institut razvitiya obrazovaniya, 2014 g..
6. Muhina, A. S. Predmetno-razvivayushaya sreda kak faktor razvitiya lichnosti rebenka / A. S. Muhina. — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy ucheniy. — 2018. — № 21 (207). — S. 487-489. — URL: <https://moluch.ru/archive/207/50700/> (data obrashcheniya: 12.07.2022).
7. Kiryanova R. A. Proektirovanie predmetno-razvivayushchey sredy v doskolnom obrazovatelnom uchrejdении kompensiruyushchego vida: Posobie dlya logopedov i vospitateley. - SPb.: KARO, 2007.
8. Konvensiya OON o pravax rebyonka. 20 noyabrya 1989 goda
9. R. R. Fayzulaeva, N. V. Artemeva, T. N. Solomahina [i dr.]. — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy ucheniy. — 2017. — № 43 (177). — S. 124-126.
10. Novikova I.V. Igraivye tehnologii v obrazovatelnom protsesse DOU // Pedrazvitie: [sayt]. – Lipesk, 2013-2020.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazini jihozlash namunalari

| № | Rivojlantiruvchi markazlar | Rasmlar |
|---|--|--|
| 1 | Qurish, konstruksiyalash va matematika |   |























































































| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |
|  |  |  |  |  |  |  |



























$6+1 = \quad$




$4+6 = \quad$




$2+6 = \quad$




$6+5 = \quad$




$5+5 = \quad$




$7+3 = \quad$




$3+6 = \quad$




$7+4 = \quad$




$5+7 = \quad$




$7+7 = \quad$



$6+7 = \quad$



$8+2 = \quad$





2

3

4

2

3

4

2

3

4

QAYDLAR UChUN

QAYDLAR UChUN